

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ERKABOYEV XUSNIDDIN JALILDINOVICH

**TUPROQNING HAYDOV OSTI QATLAMINI YUMSHATUVCHI
QURILMA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKAN FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
OLISH UCHUN DISSERTATSIYA HIMOYASIZ IXTIRO PATENTI ASOSIDA
YOZILGAN TAQDIMNOMA**

Andijon - 2026

**Texnikan fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasiz ixtiro patenti
asosidgi taqdimnoma mundarijasi**

**Оглавление презентации на основании патентов на изобретения без защиты
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Table of contents of a presentation based on patents for inventions without defending a
PhD dissertation in technical sciences**

Erkaboyev Xusniddin Jalildinovich

Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma parametrlarini asoslash..... 5

Эркабаев Хусниддин Жалилдинович

Обоснование параметров устройства для рыхления подпахотного слоя почвы..... 21

Erkabaev Khusniddin Jalildinovich

Justification of the parameters of a device for loosening the subsurface
soil layer.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

ERKABOYEV XUSNIDDIN JALILDINOVICH

**TUPROQNING HAYDOV OSTI QATLAMINI YUMSHATUVCHI
QURILMA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKAN FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN DISSERTATSIYA HIMOYASIZ IXTIRO
PATENTI ASOSIDA YOZILGAN
TAQDIMNOMA**

Andijon – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.1.PhD/T5448 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Taqdimnoma Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Taqdimnoma uch tilda (o'zbek, rus ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.andqxai.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida www.ziynet.uz joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiyev Rasuljon Jumabayvich
texnika fanlari doktori, professor

Dissertatsiya himoyasiz patent asosida taqdimnoma himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/2025.27.12.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashining 2026 -yil «22» 08 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oyjamol MFY, Oliygo'chasi, 1-uy. Tel.:(+998-74)224-02-82, Faks: (+998-74)224-02-62, e-mail: andqxai@exat.uz).

Taqdimnoma bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (662 62/1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oyjamol MFY, Oliygo'chasi, 1-uy. Tel.:(+998-74)224-02-82, Faks: (+998-74)224-02-62, e-mail: andqxai@exat.uz).



A.N.Xudoyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy Kengash raisi
texnika fanlari doktori, professor

M.M.Xalilov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy Kengash ilmiy kotibi PhD, dotsent

KIRISH (taqdimnoma annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqish, yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va mavjud mashinalarni takomillashtirishda energiya hamda resurstejamkor texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida turli qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yetishtirish uchun har yili 1,8 milliard gektardan ortiq maydonga ishlov berilishini hisobga olinsa¹, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor tuproqqa ishlov beradigan mashina va qurilmalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan haydov osti zich qatlamni yumshatish bilan tuproq unumdorligini oshirish va energiya-resurstejamkor qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda tuproqqa asosiy ishlov berishda qo‘llaniladigan agrotexnika talablari darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, haydov osti zich qatlamli tuproqlarni yumshatishdagi texnikalar, zamonaviy qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini saqlash, suvdan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishning muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik xavfi va og‘ir texnikalardan keng foydalanish sharoitida bu texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, dunyoning ko‘plab davlatlarida chuqur yumshatish ishlari energiya-resurslarni tejovchi mashinalar ishlab chiqish va texnik yechimlari hamda parametrlarini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, chuqur tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l va sifatli hosil olishning istiqbolli agrotexnologiyalarini yaratish, ularni modernizasiya qilish, qo‘l mehnati va resurlarni tejash, tuproq unumdorligini saqlaydigan va ish sifatini ta‘minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» da, jumladan «...qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini saqlash uchun haydov osti zich qatlamlarni yumshatuvchi texnika va texnologiyalarini joriy etishni taqozo etayotganini inobatga olib, yuqori samaradorikka erishadigan, haydov osti qatlamni yumshatuvchi texnika va qurilmalar ishlab chiqish hamda yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2024-yil 14-dekabrda PQ-431-son «Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish choratadbirlari

¹ http://evdemosfera.narod.ru/issl/issl/ek_zemlia.html

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063?ONDATE=18.03.2022%2000>

to'g'risida»gi Qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2023-yil 12-dekabrda PF-205-son «Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustivor yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tuproqni yumshatishda qo'llaniladigan ishchi organlarini o'rganish va tuproqqa asosiy ishlov berishda qo'llaniladigan mashinalarni yaratish va qo'llash, ularning ish ko'rsatkichlarini o'rganish va parametrlarini asoslash, shuningdek tuproqchuqurlatkiqli pluglarning ishchi organlarini tuproq bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini tadqiq etish bo'yicha xorijda K.Agaua, K. Kawanishi, L.Martinovic, S.S.Kalayev, L.X.Chibirova, A.B.Tuayevlar, V.P.Yegorov, I.I.Maksimov, V.I.Maksimov, V.Ivanovich, I.B.Borisenko, A.S.Ovchinnikov, Yu.N.Pleskachev, A.Ye.Dosenko, V.N.Kiyayev, Yu.V.Maxnov, I.S.Muxametshin, P.I.Makarov, A.R.Valiyev va boshqalar tomonidan tadqiqotlar o'tkazilgan.

Ushbu yo'nalishda respublikamizda Tojiyev R.J., M.Murodov, R.I.Baymetov, V.A.Sergiyenko, F.M.Mamatov, A.To'xtaqo'ziyev, I.T.Ergashev, R.Ibragimov, M.Miraxmatov, O.R.Kenjayeov, N.S.Bibutov, A.K.Igamberdiyev, X.R.G'offorov, N.M.Murodov, Sh.M.Murodov, R.A.Abduraxmonov, A.A.Nasritdinov, X.Turg'unov, F.Jo'rayev va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlar asosida yaratilgan mashina va qurilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda foydalaniladigan tuproq haydov osti zich qatlamlarini yumshatuvchi texnik vositalari yuqori energiya sarflanishi, tortishga qarshiligining oshishi, tannarxni haddan ortiq oshib ketganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu borada muayyan ilmiy izlanishlar olib borish lozimligini ham anglatadi.

Tadqiqot ishining dissertatsiya bajarilyotgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 151Sh/T-“Ishlov berishning ilg'or usullari, innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalari, ishlab chiqarish jarayonlari va loyihalashni avtomatlashtirish, texnologik jihozlar unumdorligi va ishonchliligini oshirish usullari, mashinasozlik detallariga mexanik ishlov berishning maqbul sharoiti va nazoratini ishlab chiqish, tadqiq qilish va joriy etish” (2022-y.) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma parametrlarini asoslash. Ekin maydonlarida mavjud haydov osti arzik

qatlamida quduqchalar hosil qilish orqali suv o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun gazodinamik tuproq yumshatkich qurilmasini traktorga o'rnatib, dala sharoitida uni sinab ko'rish va ishchi organlarining texnik yechimlarini aniqlash hamda qurilma parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmani traktorga moslab jihozlash, qurilma generatori traktorni orqasidagi ramada gorizontaal va vertikal harakatlanadigan qilib o'rnatish;

tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma generatori uchun detonatsion quvur diametri bo'yicha maqbul variantini aniqlash;

tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma generatorining detonatsion quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsuloti ochiqlikda tarqalishini hisobga olib, detonatsion quvur uchi bilan tuproq yuzasidagi bog'lanishni aniqlash;

tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma generatorining detonatsion quvuri uchidan tayanch xalqa orasidagi masofani aniqlash;

tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmada detonatsion zarbali to'lqin ta'sirida tuproqni parchalash nazariyasi asosida quduqchanning kovlash tezlik ifodasini keltirib chiqarish.

tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmada ekin maydonlarida silindrsimon quduqchalar kovlash natijasida zich qatlamning yemirilishi, tuproq qatlamida suv o'tkazuvchanlikning o'zgarishi, tuzlarning yuvilish holati hamda tuproqning fizik-kimyoviy tarkibi o'zgarishining qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligiga ta'siri o'rganilib, tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti: Farg'ona viloyati Qo'shtepa va Yozyovon tumanlarining fermer xo'jaligidagi sug'oriladigan ekin maydonlarida qish mavsumida sho'rni yuvishdan oldin tuproqning haydov osti zich qatlamini yumshatuvchi qurilma va u tomonidan amalga oshiriladigan texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti: Tuproqning haydov osti zich qatlamini yumshatuvchi qurilmada haydov osti qatlamiga ishlov berishning butunlay yangicha agrotexnik tadbirlari ishlab chiqish, detonatsion to'lqinli zarba ta'sirini tuproqqa bog'liqligi, zich qatlamlarga ishlov berish texnologik parametrlari (ishlov berish chuqurligi, quduqchalar diametri, 1 ga maydonga ishlov berish sxemalari) va qurilmaning ishchi organlari ko'rsatkichlari va maqbul variantlarini tanlashdan iborat.

Tadqiqot usullari: nazariy tadqiqotlar nazariy mexanika gruntlar mexanikasi va matematik tahlil asosida, eksperimental tadqiqotlar esa mavjud me'yoriy hujjatlarda (GOST 20915-11, O'z DSt 3193:2017, O'z DSt 3355:2018) belgilangan usullardan foydalanib, ko'p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usullari qo'llangan holda o'tkazildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: quyidagilardan iborat:

tuproqning haydov osti arzik qatlamini yumshatuvchi qurilmaning generatoriga mos diametrdagi quvur tannlandi va u asosida generator konstruksiyasi ishlab chiqilgan hamda texnologik jarayoni asoslangan;

quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsulotini ma'lum burchak ostida tarqalishini hisobga olib, quvur uchi diametridan katta bo'lgan "tayanch xalqa" si ma'lum masofa uzoqligida o'rnatilish orqali detonatsion quvur uchi bilan tuproq yuzasidagi bog'lanish aniqlangan;

yonilg'i-havo aralashmasidan yongan mahsulotini ochiq atmosferada tarqalishi va havoni siqilishi hamda zarba to'lqinining tuproqqa ta'sirini hisobga olib detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi masofa aniqlangan;

tuproq yuzasiga yo'naltirilgan detonatsion to'lqin zarbasi kuchidan hosil bo'lgan tuproqdagi kuchlanishlar va uning qarshilik kuchlari asosida quduqchani kovlash tezlik tenglamasi keltirib chiqarilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: quyidagilardan iborat:

bugungi kunda foydalaniladigan haydov osti yumshatish vositalari orasida tuproqning haydov osti arzik qatlamini yumshatuvchi qurilma yo'qligi sababli yangi usulda, ilgari hech qayerda qo'llanilmagan detonatsion to'lqin energiyasidan foydalanishga asoslangan qurilma ishlab chiqilgan;

haydov osti qatlamiga ishlov berishning butunlay yangicha agrotexnik tadbirlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, tuproqning haydov osti arzik qatlamini yumshatuvchi qurilma parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanika, gruntlar mexanikasi fanlarining asosiy qoidalari va usullariga amal qilinganligi, tajriba natijalariga matematik usuli bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan qurilma ishtirokida sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etib ko'rilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: tuproqning haydov osti zich arzik qatlamini yumshatuvchi qurilmani traktor bilan agregatlanadigan qilib ishlab chiqilganligi, qurilmaning ish rejimlari va asosiy parametrlarining asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati haydov ostida quduqchalar hosil qilish orqali o'simlik ildizlarining rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmaning parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmada arzik qatlamni yumshatish orqali zich qatlamlarni suv o'tkazuvchanligi yaxshilanib, o'simliklarning ildiz tizimini yaxshi rivojlanishiga ijobiy ta'siri natijasida hosildorlikning oshishi Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani "Fayzli Odil Maxmud" va "Abdusamad Jasurbek", "Farg'ona klaster" MCHJ ga qarashli Yozyovon tumani "Barkamol G'ayrat fayz" fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (O'zbekiston

Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 15 oktyabrdagi 05/04-04-684-son ma'lumotnomasi). Natijada tuproqning haydov osti zich qatlami yumshatilishi bilan paxta hosilini oshganligi hisobiga iqtisodiy samara 1 527 090 000 so'm natija olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Tadqiqot natijalari mutaxassislar ishtirokidagi ko'plab yig'ilishlar hamda 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi: taqdimnoma mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 1 ta konferensiya materiali Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan va O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi xuzuridagi Intellektual mulk agentligidan ixtiro uchun 1 ta patenti hamda 1 ta guvohnomasi olingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Taqdimnomaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining ixtiroga patenti № IAP 7772 "Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma" qismida ixtironing tavsifi, tuzilishi va ishlash prinsiplari bayon qilingan.

Foydalanilishi: Qishloq xo'jaligida tuproqni haydov osti qatlamini yumshatishga taaluqli.

Vazifasi: Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmaning unumdorligini oshirish, boshqaruvchanligini yaxshilashga va qurilmani tayyorlash tannarxini pasaytirish.


Mohiyati: Bir uchi yopiq va yoqilg'i hamda oksidlovchining gazsimon aralashmasi bilan to'ldirilgan metall quvurdan iborat qurilma. Quvurning ichida detonatsiya to'lqini hosil bo'lib, quvurning ochiq uchi tomon tarqaladi va shu tarzda tuproqni yuzasiga yumshatish uchun yo'naltirishga asoslangan.

Qurilmaning tuzilishi va ishlash prinsipi. Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmasi traktorga jihozlangan bo'lib (1-rasm), u quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan: rama, kompressor, yonilg'i-havo aralashmasini tayyorlash tizimi (YOHATT), generator elektr, boshqarish va nazorat qilish tizimi (2-rasm).

Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmaning tarkibiy elementi bo'lgan YOHATT uchun havo kompressori 1, oksidlovchi (havo) manbai sifatida ishlatiladi (BP-8/22 kompressoridan foydalanilgan) (3-rasm).


Yoqilg'i-havo aralashtirgich. Benzin-havo aralashmasini tayyorlash tizimi

(bundan buyon matnda aralashmani tayyorlash tizimi (ATT) deb yuritiladi) ish qismlari ma'lum nisbatda benzin va havo aralashmasini shakllantirish va yetkazib berish uchun mo'ljallangan. ATT quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: havo kompressor ("BP-8/2.2"); benzinning asosiy idishi (bak). U benzinning sathini ko'rsatkichi bilan jihozlangan; benzin sarflash idishi (bak). U benzinni qayta otkazish klapan, setkali filtr va quyish (sarf) klapani bilan jihozlangan; yopish klapani bilan jihozlangan benzin etkazib berish liniyasi; benzinni sarflash bakidan benzinni bosim ostida chiqarib olish uchun beriladigan bosimli havo liniyasi; konfuzor; aralashmaning tarkibini sozlash, jiklerli purkash uzelig, konussimon bo'luvchiga va boshqaruv vintiga ega.




1-kompressor; 2-konfuzor; 3-forsunka; 5-yoqilgi baki; 8- yoqilgi ta'minlovchi bak; 14-havo o'tkazuvchi trubka; 17-klapan; 20-yonish kamerasi; 21-detonatsion quvur; 22-turbulizator; 23-traktor kabinasi; 25-oldingi gidrosilindr; 26-orqa gidrisilindr; 27-rama; 28-quvur.

1-rasm. Tuproqning haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmaning umumiy ko'rinishi.



1-kompressor; 2-konfuzor; 3-forsunka; 4-konus rassekatel; 5-yoqilg'i baki; 6,9-yoqilg'i trubkalari; 7,11-klapanlar; 8- yoqilg'i ta'minlovchi; 10-filtr; 12-kran; 13-jikler; 14-havo o'tkazuvchi trubka; 15-shayba; 16-ko'rsatkich; 17-klapan; 18-boshqarish oynasi; 19-svecha; 21-detonatsion quvur; 22-turbulizator; 28-quvur. 29-klapan; 30-tayanch xalqa.

2-rasm. YOHATT sxemasi.




1-klapan panjarasi; 2-lepestli klapan; 3-cheklovchi klapan; 4-alanga to'sgich.

3-rasm. Qaytaruvchi

Traktorning quvvat olish validan zanjirli uzatma orqali harakat olgan havo kompressori 1, ishga tushiriladi, havo oqimi YOHA TT ga uzatiladi (3-rasm).

Quduqchalar kovlash jarayoni quyidagicha: I-takt quvurni YOHA bilan to'ldirish; II-takt yonish jarayoni; III-takt yongan mahsulotni ochiq atmosferaga chiqarish jarayoni. Bunda detonatsion quvurni ochiq tomoni tuproq yuzasiga yo'naltiriladi. Ketma-ket zarbali to'liqin kuchi ta'sirida quduqchani burg'alash jarayoni yuzaga keladi. Natijada quvur diametrda ikki martaga teng bo'lgan quduqcha hosil qilinadi. Quduqcha hosil qilishda tuproqning bir qismi bosim ostida tashqariga chiqariladi (4-rasm).



4-rasm. Quduqcha hosil qilish jarayoni.

Ixtirodagi qurilmaning parametrlarini asoslash qismida generatorning detonatsion quvurini tanlash, detonatsion quvur uchi bilan tuproq yuzasidagi bog'lanish va detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofalarni aniqlash, detonatsion to'liqinli generatorni konstruksiyasi hamda tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmani traktoriga moslab jihozlash ishlari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida generatorga mos bo'lgan detonatsion quvur 21 ni tanlash lozim bo'ldi. Bunda arzik qatlam mavjud bo'lgan tuproqda diametri 20, 25 va 32 mm li metall quvurlarda sinab ko'rildi (6-jadval).

O'tkazilgan sinov natijalariga ko'ra turli diametrdagi metall quvurlarda bir-biridan katta farqlar vujudga keldi (6-jadval). Jadvalga e'tibor berib ko'rganimizda, diametri 20 mm li quvur bilan 150 sm li zich qatlamda 151 sekunda quduqcha hosil qilinganligi kuzatildi. Quduqcha hosil qilish jarayonida tuproqning tashqariga chiqarilishi juda oz bo'ldi. Demak, bunday tuproqni tashqariga chiqarmasdan uni quduqchani yon tomonlariga zichlagan, degan xulosaga kelish mumkin.

6- jadval

Quduqchalar hosil qilishda turli diametrdagi metall quvurlarni kovlash chuqurligi h (sm) va vaqti t (s) bo'yicha taqqoslash jadvali

Quduqcha chuqurligi, sm	Metall quvur diametri, mm		
	20	25	32
0-30	6	5	5
30-60	37	24	26
60-90	72	44	52
90-120	109	66	74
120-150	151	90	120


Diametri 25 mm li quvurda 150 sm chuqurlikdagi zich qatlamda 90 sekunda quduqcha hosil qilinganligi kuzatildi. Quduqcha hosil qilish jarayonida tuproqning bir qismi tashqariga chiqarildi.

Diametri 32 mm li quvurda 150 sm chuqurlikdagi zich qatlamda 120 sekunda quduqcha hosil qilinganligi kuzatildi. Quduqcha hosil qilish jarayonida tuproqning

bir qismi tashqariga chiqarildi. Shu bilan birga hosil qilingan quduqchalarni ichki yon devorlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Lekin paydo bo'lgan yoriqlar uncha ko'p emasligi aniqlandi.

Demak, diametri 25 mm bo'lgan metall quvur eng maqbul variant, deb xulosa qilindi.

Ushbu o'tkazilgan tajribaviy tadqiqotdan olingan natijalar bo'yicha quduqchalar hosil qilishda turli diametrdagi metall quvurlarni kovlash chuqurligi h (sm) va vaqti t (s) bo'yicha taqqoslash grafigi ishlab chiqildi (5-rasm).



1- $d_q=20$ mm const bo'lganda; 2- $d_q=25$ mm const bo'lganda; 3- $d_q=32$ mm const bo'lganda.

5-rasm. Quduqchalar hosil qilishda turli diametrdagi metall quvurlarni kovlash chuqurligi h (sm) va vaqti t (s) bo'yicha taqqoslash grafigi.

5-rasmda keltirilgan grafik bog'liqliklarni eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlangan quyidagi empirik tenglamalar bilan ifodalash mumkin.

1. $d_q=20$ mm const bo'lganda:

$$t=0,0039h^2+0,4404h-1,6071 \quad R^2=0,9988 \quad (1)$$

2. $d_q=25$ mm const bo'lganda:

$$t=0,0029h^2+0,3039h-1,6071 \quad R^2=0,9992 \quad (2)$$

3. $d_q=25$ mm const bo'lganda:

$$t=0,00419h^2+0,1721h-1,0357 \quad R^2=0,9951 \quad (3)$$

Tadqiqot natijalari nazariy hisoblash natijalaridan 2,6...3,9% ga farq qiladi va undan oshmaydi. 1, 2 va 3 tenglamalardagi kattaliklar kovlash vaqti 5-150 sekund va quvur diametri 20-32 mm oralig'ida bo'lganda ma'noga ega.

Belgilangan chegaralarda 1, 2 va 3 tenglamalarga muvofiq tadqiqot natijalari farqi hisobiy natijalarga nisbatan o'rtacha 3,9% dan oshmaydi. Bu esa olingan tajribaviy natijalar to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Detonatsion quvur uchi bilan tuproq yuzasidagi bog'lanishni aniqlash.

Detonatsoin quvur uchi bilan tuproq yuzasi orasida ma'lum x masofa bo'lishi kerak. Bunda quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsuloti ma'lum α burchak ostida tarqaladi. Shuningdek, quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsuloti tuproq yuzasiga urilishdan oldin siqilgan havoga ham duch keladi (6-rasm). Siqilgan havoni bosim ostida tashqariga chiqaradi.


Quduqchalar hosil qilish jarayonida ba’zida generatorning yonish kamerasini qizishi va kovlash tezligining sekinlashish holatlariga bir necha bor duch kelindi. Bunda detonatsion quvur uchidan chiqayotgan zarbali to‘lqin ochiq havoda erkin harakat qilmaganligi yoki umuman quvurdan ochiqlikka chiqmaganligi tufayli shunday jarayon sodir bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida dastlab, quvurning uchini ikki tomonini to‘rtburchaksimon qilib, kesib qo‘yildi (7-rasm, a). Natijada quvur diametridan 3-4 marta katta bo‘lgan to‘rtburchaksimon quduqcha hosil qilindi va kovlash tezligi ham ancha pasaydi. Demak, quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsulotini ma’lum α burchak ostida tarqalishini hidobga olib,



a) to‘rtburchaksimon kesilgan holati;
b- tayanch xalqani o‘rnatilgan holati.

7-rasm. Diametri 25 mm bo‘lgan detonatsion quvur uchi.

mahsulotni tarqalishi, havoni siqilishi va zarba to‘lqinining tuproqqa ta’sirlariga bog‘liq. Shuningdek, generatorni normal holatda ishlashi va quduqcha hosil qilishi jarayoni ham bir mi’yorda ishlashini ta’minlash lozim. Buni tajribada haydov osti zich bo‘lgan ma’lum o‘lchamdagi qatlamda tajriba o‘tkazish orqali aniqlash mumkin (7-jadval).



d_q -detonatsoin quvur diametri; x – detonatsion quvur uchidan tuproq yuzasigacha bo‘lgan masofa. d_{qam} - detonatsion to‘lqinli zarba qamrovi; α - yongan mahsulotni yoyilish burchagi.

6-rasm. Detonatsion quvur uchi.

quvur uchi diametridan katta bo‘lgan x masofa uzoqligida quvur xalqa o‘rnatish mumkinligi aniqlandi (7-rasm, b). Uchbu o‘rnatilgan xalqa detonatsion quvurning “tayanch xalqa” si deb yuritilib, yuqorida ko‘rsatilgan muammoni shu tarzda bartaraf etildi.

Detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofani tanlash.

Detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofaga yongan

7- jadval

Qalinligi 75 sm li zich qatlamda detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofani aniqlash

Variant	Quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofa, mm	Quduqcha kovlash uchun sarflangan vaqt, s	Siqilgan havoni tuproq bilan tashqariga chiqarish imkoniyati
1	5	44	Kuchli
2	10	46	Kuchli
3	15	49	Kuchli
4	20	61	Kuchsiz
5	25	77	Kuchsiz

Ushbu olingan natijalar taxlili.

1-variantda quduqcha kovlash uchun sarflangan vaqt va siqilgan havoni tashqariga chiqarish holati ham kuchli qanoatlantiradi. Lekin quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi $x=5$ mm masofa oz. Chunki kovlash jarayonida mayin tuproqqa duch kelishi yoki loyli tuproqqa duch kelgan paytida siqilgan havoni chiqarishda muammo bo'lishi mumkin.

2-variantda esa quduqcha kovlash uchun sarflangan vaqt va siqilgan havoni tashqariga chiqarish holati ham kuchli, qanoatlantiradi.

3- variantda esa quduqcha kovlash uchun sarflangan vaqt va siqilgan havoni tashqariga chiqarish holati ham kuchli qanoatlantiradi. Lekin sarflanga vaqt oz farqida bo'lsada ko'proqligi aniqlangan.

4 va 5-variantlarda esa yuqoridagi talablarga mos emasligi ko'rinib turibdi.

Shunday qilib, ushbu o'tkazilgan tajribadan shu aniqlandiki, quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi $x=10$ mm masofa maqbul variant deb topildi (8-rasm).

Detonatsion to'lqinli generatori. Generator asosiy ish bajaruvchi uzal hisoblanadi. Chunki u yonilg'i-havo aralashmasini yondirib, zarbali to'lqin hosil qiluvchi uzal hisoblanadi. Detonatsion to'lqinli generator quyidagilardan tashkil topgan bo'ladi (9-rasm): Qaytaruvchi klapan; Yonish kamerasi; svecha; turbulizator; detonasion quvur; tayanch xalqa.

Detonasion to'lqinli generator parametrlari quyidagilardan iborat (9-rasm):


1. umumiy balandligi, $H_G=2300$ mm;
2. nasadka diametri, $d_{Gn}=25$ mm;
3. yonish kamerasi (qovurg'ali, silindrsimon) ni tashqi diametri, $d_{Gyt}=100$ mm;
4. yonish kamerasini ichki diametri, $d_{Gyo}=50$ mm;
5. yonish kamerasini uzunligi, $h_{Gyo}=250$ mm;
6. turbulizatorni diametri, $d_{Gt}=100$ mm;
7. turbulizatorni uzunligi, $h_{Gt}=250$ mm;
8. detonasion quvur diametri, $d_q=25$ mm;
9. detonasion quvur uzunligi, $h_q=1500$ mm.

Yonilg'i-havo aralashmasini generatorda svecha orqali yongan mahsuloti impulsli xarakterga ega bo'lgan quyidagi parametrlarga ega: zarba to'lqinidagi bosim 35 atm.; yongan mahsulotlarining; yongan mahsulotlarining quvur bo'ylab 1600-1800 m/s tezlikda harakatlanishi.

Har qanday sirtga tushadigan bunday gazodinamik impuls kuchi, qisqa vaqt ichida zarbasi bilan ta'sir qiladi. Ta'sir kuchi va uning yo'nalishini sozlash mumkin. Shuningdek, uchbu qurilma kontaktsizligi bilan boshqa uskunalardan ajralib turadi.



8-rasm. Quvur uchidagi tayanch xalqa.



9-rasm. Detonatsion generator o'lchamlari.

Tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmani traktoriga moslab jihozlash. Qurilma T28XM markali traktorning orqa tomoniga osma qilib o'rnatiladi (10-rasm). Qurilma quyidagilardan tashkil topgan: yonilg'i-havo aralashmasini tayyorlash tizimi; detonasion to'liqlik generator; barcha agregatlarni mahkamlovchi umumiy rama; nazorat va boshqarish tizimi (elektr qismi bilan).




A-qurilmani transport va b-ishchi holati.

10-rasm. Gazodinamik tuproq yumshatkichning umumiy ko'rinishi

Yonilg'i-havo aralashmasini tayyorlash tizimi uchun havo uzatishga BP-8/2.2 kompressori tanlangan. Normal atmosfera sharoitida $6 \text{ m}^3/\text{min}$ unumdorlikka ega. Yonilg'i uchun 170 litr sig'imga ega benzin bak. Yonilg'i-havo aralashmasini tayyorlash uchun stexiometrik nisbat ta'minlashi kerak. Buning uchun havo-yanilg'i nisbati 16/1 ni tashkil etadi. Tayyorlangan yonilg'i yuqori bosimga chidamli (ipli) shlang bilan detonatsion generatorga ulangan. Generatorlar soni 4 dona bo'lib, ularning har birini umumiy uzunligi 2300 mm ni tashkil etadi. Bu generatorlar orasi 1,2 m ni tashkil etadi. Generatorlarni bo'ylama siljishi uchun ko'tarish mexanizmi ham o'rnatilgan. Haydov qatlam ostidagi arzik qatlam zich va mo'rt bo'lganligi sababli hosil qilingan quduqchalarning devorlari yorilib, ular bir-biriga ulanib ketadi. Quduqchalar hosil qilish jarayoni quyidagicha: diametri 25 mm bo'lgan vertikal quvurlardan chiqayotgan to'liqlik zarba orqali arzik qatlamga yo'naltirilgan. Ketma-ket detonatsion to'liqlik zarba ta'siridan tuproqlarda dastlab siljish hodisasi ro'y beradi va tuproqlar ko'chib tashqariga chiqariladi. Natijada quvur diametridan ikki marta katta bo'lgan quduqchalar hosil bo'ladi.


Demak, detonatsion quvurdan chiqayotgan zarbali to'liqlik ketma-ketligi sababli quduqcha hosil qilinadi. Bunda tuproqni bir qismi bosim ostida tashqariga chiqariladi. Shu bilan birga hosil qilingan quduqchalarning yon tomonlarida yoriqlar hosil bo'ladi (11-rasm).



a-hosil qilingan quduqchalar sxemasi, d_1 -detonatsion quvur diametri; d_2 –quduqcha diametri; A1-haydov qatlami; A2-sun'iy zich qatlam; A3-tabiiy zich qatlam; b-quduqcha hosil qilish jarayoni; c-hosil qilingangan quduqchalarni ko'rinishi va yon devorlarining yorilishi.

11-rasm. Hosil qilingan quduqchalar.

Zich qatlamli tuproqlarda quduqchalar kovlashning samaradorligini aniqlash maqsadida tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilgan (12-rasm).



A- oldi bo'ylab ikki qo'shni quduqchalararo masofa; B- chuqurlik bo'ylab ikki qo'shni quduqchalararo masofa;

12-rasm. Hosil qilingan quduqchalarning joylashish sxemasi.

Tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilma 90 sekundda 1,5 m chuqurlikdagi 4 ta quduqcha kovlash imkonini beradi.

Bir gektar uchun taxminiy quduqcha kovlash vaqti, soat:

$$t = \frac{n \cdot (3 + \Delta t)}{4 \cdot 60} \quad (1)$$

Bu yerda, Δt - qurilmaga qo'shimcha vaqt;

n – 1 ga uchun quduqchalar soni;

$\Delta t = 2$ min bo'lganda $t = 30$ min.

Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmada 1 ga maydon uchun 200 ta quduqchalar hosil qilish


tavsiya etiladi.

Tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmada ishlov berishdan so'ng gidrokarbonat darajasining qisqa muddatli o'sishi kuzatildi.

Tuproq qatlamidagi gidrokarbonat miqdorining oshishi gazodinamik quvurlardagi yoqilg'i-havo aralashmasi tufayli yuzaga keladigan to'g'ridan-to'g'ri ushbu qatlam ichidagi CO_2 kontsentratsiyasining oshishi bilan bog'liq deb hisoblaymiz. CO_2 oqimidan keyin nisbatan nam tuproqlarda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



Ma'lumki, karbonat kislotasi zaif, ammo u tuproq karbonatlari bilan tezda reaksiyaga kirishishi mumkin:



Hosil bo'lgan H_2 , CO_2 va HCO_3 vaqtincha bir oz ishqoriy reaksiyani saqlab turadi va shu bilan tuproq eritmasini karbonatlari hisobiga kalsiy va magniy bilan boyitadi. Tuproq tarkibidagi erimayotgan tuzlarni parchalab, elementlarga bo'lib yuboradi, natijada nitrifikatsiyani kuchaytiradi, nitratlar hisobiga o'simliklarining oziqlanishi yaxshilanadi. Buni o'tkazilgan tajribalar tasdiqladi, ya'ni chiqitni unib chiqishi tezlashgan hamda g'o'za yaxshi rivojlandi.

Nazari tadqiqot qismida detonatsion to'lqin ta'sirida tuproqni kovlash teligining ifodasi keltirib chiqarish yoritilgan.

Detonatsion quvurdan chiqadigan to'lqin zarbasi qazilgan tuproq yuzasida aks etadi, shu bilan birga to'siqdagi bosim kuchayadi va uning ta'siri ostida intensiv siqilish sodir bo'ladi. Bu holat siqilgan zarrachalarning ma'lum bir zichligiga erishilgunga qadar davom etadi. Keyinchalik, bu siqilgan yadro, keyingi bosim impulslari ostida, tuproqqa kirib, uning oldidagi zarrachalarni yon tomonlarga suradi. Bundan tashqari, yadroni tashkil etuvchi zarralar ishqalanish kuchlari uning

yuzasi ta'siridan aniqlanadi va ular ichkari tomon harakat qilganda, yadro yangilari bilan almasha oladi. Shuning uchun yadro massasi o'zgarmagan holda unga kirayotgan zarrachalarning tarkibi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Detonatsiya moslamasining bir ish vaqti davomida siqilish yadrosi elementar masofani bosib o'tadi.

$$X = \int_0^{\tau} v(t) dt \quad (4)$$

bu yerda: $v(t)$ siqilish yadrosining kirib borish tezligi.

Tuproqning ichiga kirish chuqurligi X ni quyidagicha ifodadan aniqlanadi

$$X = 1,875 \sqrt{\frac{\beta}{\varepsilon \rho_0}} \int_0^t \sqrt{e^{-\lambda t} - \frac{P_*}{\beta}} dt$$

Integrallangandan keyingi tenglama:

$$X = \frac{3,752}{\lambda} \sqrt{\frac{P_*}{\varepsilon \rho_0}} \left(\sqrt{\frac{\beta}{P_*}} - 1 - \arctg \sqrt{\frac{\beta}{P_*}} - 1 \right) \quad (5)$$

X ni impuls chastotasi f bilan ko'paytirsak, biz V_q quduqchaning kovlash tezligini olamiz.

$$V_q = X f.$$

XULOSA

1. Haydov osti zich qatlamlarni yumshatuvchi qurilmani yaratishda o'tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalariga ko'ra, sinab ko'rilgan turli diametridagi metall quvurlardan 25 mm ni maqbulligi aniqlandi.

2. Quvur uchidan chiqayotgan yonish mahsulotini ma'lum α burchak ostida tarqalishini hisobga olib, quvur uchi diametridan katta bo'lgan "tayanch xalqa" si x masofa uzoqligida o'rnatilish orqali detonatsion quvur uchi bilan tuproq yuzasidagi bog'lanish aniqlandi.

3. Detonatsion quvur uchidan tayanch xalqa orasidagi x masofasini aniqlashda yongan mahsulotni tarqalishi, havoni siqilishi va zarba to'lqinining tuproqqa ta'sirlariga bog'liqligi va o'tkazilgan tajriba variantlaridan eng maqbuli $x=10$ mm ekanligi aniqlandi.

4. Yonilg'i-havo aralashmasini generatorda svecha orqali yongan mahsulotining zarba to'lqinidagi bosim 35 atm, oqim tezligi 800 m/s ni tashkil etdi. Generatorlar soni 4 ta va uning uzunligi 2300 mm, detonatsion quvurni uzunligi esa 1500 mm.

5. Tuproqni haydov osti qatlamini yumshatuvchi qurilmasi № IAP 7772 ixtiro patenti bo'yicha yuqorida aniqlangan parametrlar asosida traktorga moslab jihozlandi. Qurilma traktorni orqa tomoniga maxsus ramaga, vertikal va gorizontal siljiydigan qilib o'rnatildi.

6. Haydov osti zich qatlamlarni yumshatuvchi qurilmada diametri 50 mm li quduqchalar hosil qilish natijasida, ekinlarni rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratildi.

Hosil qilingan quduqchalar va uning yon tomonlari yorilishi sababli, qatlamning suv o'tkazuvchanligi yaxshilandi, natijada hosildorlik oshdi.

7. Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani "Fayzli Odil Maxmud" va "Abdusamad Jasurbek", "Farg'ona klaster" MCHJ ga qarashli Yozyovon tumani "Barkamol G'ayrat fayz" fermer xo'jaliklarida 2021-2022 yillarning qish mavsumida sug'oriladigan ekin maydonlari sho'rini yuvishdan oldin, tuproqning haydov osti zich qatlami yumshatilishi natijasida paxta hosilini oshganligi hisobiga iqtisodiy samara 1 527 090 000 so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.08/2025.27.12.T.03.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ИНСТИТУТЕ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

ЭРКАБАЕВ ХУСНИДДИН ЖАЛИЛДИНОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ УСТРОЙСТВА ДЛЯ РЫХЛЕНИЯ
ПОДПАХОТНОГО СЛОЯ ПОЧВЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**ПРЕЗЕНТАЦИЯ, НАПИСАННАЯ НА ОСНОВАНИИ ПАТЕНТА НА
ИЗОБРЕТЕНИЕ, БЕЗ ЗАЩИТЫ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/T5448.

Презентация выполнена в Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Презентация размещена на веб-сайте Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий www.andqxa.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:
доктор технических наук, профессор

Тожиев Расулжон Жумабоевич

Защита презентации состоится «22» 08 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.08/2025.27.12.T.03.02 по присуждению ученых степеней при Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий. (Адрес: 170600, Андижанская область, Андижанский район, МФЙ Ойжамол, улица Олийгох, дом 1. Тел.:(+998-74)224-02-82, Факс: (+998-74)224-02-62, e-mail: andqxai@exat.uz).

С презентацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий (зарегистрирована за № 66262/1). Адрес: 170600, Андижанская область, Андижанский район, МФЙ Ойжамол, улица Олийгох, дом 1. Тел.:(+998-74)224-02-82, Факс: (+998-74)224-02-62, e-mail: andqxai@exat.uz).



А. Н Худояров.

Председатель научного совета

по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

М. М.Халилов

Ученый секретарь научного совета по

присуждению ученых степеней, к.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация презентации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе одним из приоритетных направлений в области разработки сельскохозяйственной техники, создания новых машин и технологий, а также совершенствования существующих технических средств является применение энерго- и ресурсосберегающих технологий. Учитывая, что ежегодно в мире для возделывания различных сельскохозяйственных культур обрабатывается более 1,8 млрд гектаров земель³, возникает необходимость внедрения в производство высокопроизводительных, качественных и энерго-ресурсосберегающих машин и орудий для обработки почвы. В этой связи особую значимость приобретают повышение плодородия почвы за счет рыхления уплотненного подпахотного слоя, а также использование энерго- и ресурсосберегающей сельскохозяйственной техники.

Во всем мире особое внимание уделяется проведению научно-исследовательских работ, направленных на разработку новых научно-технических решений, обеспечивающих выполнение основных операций обработки почвы в соответствии с агротехническими требованиями при минимальных затратах энергии. В этом направлении технические средства для рыхления уплотненного подпахотного слоя являются одним из важнейших инструментов современного земледелия, способствующих сохранению плодородия почвы, эффективному использованию водных ресурсов и повышению урожайности. Особенно в условиях изменения климата, возрастающей угрозы засухи и широкого применения тяжелой сельскохозяйственной техники значение данных технологий постоянно возрастает. В связи с этим во многих странах мира проводятся научные исследования, направленные на разработку энерго- и ресурсосберегающих машин для глубокого рыхления почвы, а также на совершенствование их конструктивных решений и основных параметров.

В Республике Узбекистан в результате осуществляемых коренных реформ и глубоких структурных преобразований реализуются масштабные меры по созданию перспективных агротехнологий, обеспечивающих получение высоких и качественных урожаев сельскохозяйственных культур, модернизации отрасли, сокращению затрат ручного труда и материальных ресурсов, разработке технических средств, обеспечивающих сохранение плодородия почвы и высокое качество выполнения технологических процессов. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы в числе приоритетных задач определено «ускоренное развитие сельского хозяйства на научной основе»⁴. В реализации данных задач особое значение приобретает разработка и внедрение высокоэффективных машин и устройств

³ http://evdemosfera.narod.ru/issl/issl/ek_zemlia.html

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063?ONDATE=18.03.2022%2000>

для рыхления уплотненного подпахотного слоя, поскольку в современных условиях обеспечение сохранения плодородия почвы требует широкого внедрения соответствующих технических средств и технологий.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-4410 от 31 июля 2019 года «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения и государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой», Постановлением № ПП-431 от 14 декабря 2024 года «О мерах по дальнейшему повышению уровня механизации сельского хозяйства», Указом № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом № УП-205 от 12 декабря 2023 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию свободных рыночных отношений в сельском хозяйстве», а также другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу деятельности.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

